



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI VAZIRINING BUYRUG'I

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2024-yil II yarim yillikka mo'ljallangan ish rejasini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini 2024-yil II yarim yillikda samarali tashkil etish maqsadida

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2024-yil II yarim yillikka mo'ljallangan ish rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. **Vazirlik markaziy apparatining barcha tarkibiy bo'linmalari, tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalari rahbarlari:**

bir hafta muddatda ushbu buyruq bilan tasdiqlangan vazirlikning 2024-yil II yarim yillikka mo'ljallangan ish rejasida belgilangan vazifalar asosida o'zlarining ish rejalarini ishlab chiqib, tasdiqlanishini;

o'zlarining hamda vazirlik ish rejasi ijrosi bo'yicha ma'lumotlarni **har oyning 25-sanasiga qadar** Strategik rejalashtirish, metodologiya va tarkibiy bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish yig'ma axborot-tahlil boshqarmasiga kiritib borilishini ta'minlasinlar.

3. Belgilansinki, **Turizm qo'mitasi raisi U. Shadiyev**, **O'rmon xo'jaligi agentligi direktori N. Bakirov** va **Gidrometeorologiya xizmati agentligi direktori Sh. Xabibullayev**:

o'zları mas'ul bo'lgan sohalar va tarmoqlar bo'yicha belgilangan ish rejaları ijrosi va natijadorligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi;

tegishli sohalar va tarmoqlar bo'yicha belgilangan ish rejaları rahbar o'rinosarlari hamda bo'linmalar tomonidan o'z vaqtida, to'liq hajmda bajarilishi ustidan qat'iy nazoratni ta'minlaydi hamda bu borada ta'sirchan choralar ko'rib boradi.

4. Strategik rejorashtirish, metodologiya va tarkibiy bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish yig'ma axborot-tahlil boshqarmasi (Akramxujayev):

vazir o'rinnbosarlari va vazir kotibiyati (Jumanov) bilan birgalikda vazirlikning umumiy yig'ilishlarida ish rejali ijrosi holatini doimiy ravishda tanqidiy muhokama qilib borilishini hamda umumlashtirilgan tahliliy materiallarni belgilangan muddatlarda Vazirlar Mahkamasiga taqdim etilishini;

Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (Kazakbayeva) bilan birgalikda vazirlik ish rejasi ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etmagan yoki noto'g'ri taqdim etilgan hollarda tegishli rahbar va mas'ul xodimlarning shaxsiy mas'uliyatini oshirish yuzasidan taklif kiritilishini ta'minlasin.

5. Vazir o'rinnbosarlari, vazirlik markaziy apparati barcha tarkibiy va hududiy bo'linmalarini hamda tizim tashkilotlari rahbarlari mazkur buyruq ijrosini belgilangan muddatlarda sifatli ta'minlashga mas'ul hisoblanadi.

6. Devonxona bo'limi (Yuldashev) ushbu buyruqni **bir kun muddatda** barcha tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda tizim tashkilotlariga ijro uchun yetkazsin.

7. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir

2024-yil 26 - iyul
313 - son



A. Abduxakimov

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza
qiliш va iqlim o'zgarishi vazirligining
2024 yil "~~26~~" ~~07~~ dagi
313-son buyrug'iiga
1-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim
o'zgarishi vazirligining 2024-yil II yarim yilikk'a mo'ljallangan
ISH REJASI**

T/r	Ustuvor vazifalar	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ul
1.	“Yashil makon” urummilliyl loyihasi doirasida kuz mavsumida 75 million tup manzarali, mevali daraxt va buta ko'chatlarini hamda qalamchalarini ekish.	2024-yil noyabr	O'rmon, bioxilmassilik va ekoturizm siyosatini yuritish departamenti, O'rmon xo'jaligi agentligi, hududiy bo'limalar
2.	Respublikadagi “yashil bog'lar” sonini 530 taga yetkazish.	2024-yil II yarim yillikda	O'rmon, bioxilmassilik va ekoturizm siyosatini yuritish departamenti, O'rmon xo'jaligi agentligi, hududiy bo'limalar
3.	Respublikadagi yirik tuman va shaharlarning yashillik darajasini 12,4 foizga yetkazish.	2024-yil II yarim yillikda	O'rmon, bioxilmassilik va ekoturizm siyosatini yuritish departamenti, O'rmon xo'jaligi agentligi, hududiy bo'limalar
4.	112 ta yirik sanoat korxonalarining hududida va unga tutash hududlarda 4,7 mln tup ko'chatdan iborat “yashil belbog” lar barpo etish.	2024-yil kuzgi ko'chat ekish mavsumida	Atmosfera havosi muhofazasini ta'minlash bo'limi, O'rmon, bioxilmassilik va ekoturizm siyosatini yuritish departamenti

T/r	Ustuvor vazifalar	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ul
5.	“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida joriy yil kuz mavsumida 75 mln daraxt va buta ko'chatlarini ekilishini nazorat qilish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisiga tegishli materiallarni tayyorlash.	2024-yil dekabr	O'rmon, bioxilmassallik va ekoturizm siyosatini yuritish departamenti, O'rmon xo'jaligi agentligi, hududiy bo'limmalar
6.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqilgan “Mening bog‘im” loyihalarini shakllantirish va moliyalashtirish tartibi to'g'risida Nizom” 2024-yil 26-martdagi 156-son qarori ijrosini maqsadli o'rganish.	2024-yil dekabr	O'rmon, bioxilmassallik va ekoturizm siyosatini yuritish departamenti, O'rmon xo'jaligi agentligi, hududiy bo'limmalar
7.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “yashil makon” umummiliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida” 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-son Farmoni ijrosini maqsadli o'rganish.	2024-yil noyabr	O'rmon, bioxilmassallik va ekoturizm siyosatini yuritish departamenti, O'rmon xo'jaligi agentligi, hududiy bo'limmalar
8.	14 ta hududda qarovsiz hayvonlarni saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi pitomniklarni tashkil etish.	2024-yil II yarim yillikda	Bioxilmassallikni siyosatini yuritish bo'limi
9.	Kosmik monitoring orqali Respublikaning 12 ta hududida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda yer uchastkalarining o'zboshimchaliq bilan egallab olinishi, noqonuniy bino va inshootlar qurilish holatlarini aniqlash va tegishli choralar ko'rish.	2024 yil dekabr	Davlat kadastrini yuritish va geoaxborot tizimini joriy etish bo'limi, Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi

T/r	Ustuvor vazifalar	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ul
10.	Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni 14,2 foizgacha kengaytirish.	2024-yil II yarim yillikda	Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar departamenti
11.	Yo'qolib borayotgan turlarning xalqaro savdosi to'g'risidagi Konvensiyaga (CITES) muvofiq yovvoyi Fauna va Floraning yo'qolib borayotgan turlarining noqonuniy savdosiga chek qo'yish maqsadida bojxona qo'mitasi va boshqa vakolatli xizmatlar xodimlari uchun kompleks amaliy mashg'ulotlar va seminarlar o'tkazish uchun ilmiy-uslubiy qo'llanmalar tayyorlash.	2024-yil II yarim dekabr yillikda	Bioxilmassallikni siyosatini yuritish bo'limi
12.	Ekologiya va atrof-muhofaza qilish sohasidagi nazorat ishlarini amalga oshirish borasida huquqni muhofaza qilish organlar bilan birgalikda 900 dan ortiq reyd tadbirlarini amalga oshirish.	2024-yil II yarim yillikda	Ekologik nazorat inspeksiyasi
13.	Korxonalar tashkilotlar hamda aholi o'rtaida ekologik sohaga oid huquqbuzarlik 50 mingdan ortiq profilaktik tadbirlarini olib borish.	2024-yil II yarim yillikda	Ekologik nazorat inspeksiyasi
14.	Aydar-Arnasoym ko'llar tizimida ekologik barqarorlikni saqlash choralarini ko'rish.	2024-yil II yarim yillikda	Ekologik nazorat inspeksiyasi
15.	11 200 ta xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatini ekologik talablariga muvofqiligi belgilash yuzasidan Davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazilishi ta'minlash.	2024 yil II yarim yillik davomida	Davlat ekologik ekspertizasi markazi
16.	"Toza havo" oyligi tadbiri davomida 200 ming ta avtotransport vositalarini ekologik nazoratdan o'tkazish.	2024-yil noyabr	Atmosfera havosi muhofazasini ta'minlash bo'limi,

T/r	Ustuvor vazifalar	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ul
			Ekologik nazorat inspeksiyasi, hududiy bo'linmalar
17.	Iqtisodiyot tarmoqlaridan havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 0,7 foizga qisqartirish. Jumladan, Atrof-muhitga ta'siri bo'yicha I va II toifaga mansub 80 ta xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga yuqori samaradorlikka ega chang-gaz tozalash uskunalarini o'rnatish hamda mayjudlarini modernizatsiya qilishni tashkillashtirish.	2024-yil dekabr	Atmosfera havosi muhofazasini ta'minlash bo'limi, hududiy bo'linmalar
18.	56 ta sanoat korxonalarida lokal oqova tozalash inshootlarini qurish va mayjudlarini rekonstruksiya qiliш	2024-yil dekabr	Suv, yer resurslari va yer osti boyliklarini muhofaza qiliш bo'limi, hududiy bo'linmalar
19.	Foydali qazilmalarni qazib olish natijasida buzilgan 1 320 hektar yer maydonlarini rekultivatsiya qilish.	2024-yil II yarim yillikda	Suv, yer resurslari va yer osti boyliklarini muhofaza qiliш bo'limi, hududiy bo'linmalar
20.	Atrof tabiiy muhit ifloslanishi manbalarida 2 200 ta davlat ekologik monitoringini amalga oshirish (qayta o'chovlarni inobatga olgan holda).	2024-yil II yarim yillikda	Atrof-muhit monitoringi, iqlim o'zgarishiga va gidrometeorologiya sohasini muvofiqlashtirish bo'limi, hududiy bo'linmalar
21.	Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasida 20 ta ilmiy-tadqiqot ishlariни olib borish.	2024-yil II yarim yillikda	Ekologik ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni joriy etish bo'limi
22.	Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasida ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari bo'yicha 30 ta ilmiy maqolalar	2024-yil II yarim	Ekologik ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni joriy etish bo'limi

T/r	Ustuvor vazifalar	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ul
	tayyorlash va chop etish.	yillikda	
23.	Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari, treninglar va seminarlarda 400 nafar soha xodimlarini malakasini oshirish choralarini ko'rish.	2024-yil II yarim yillikda	Ekologik ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni joriy etish bo'limi
24.	33 ta chiqindi poligonlarini rekultivatsiya qilish, 27 tasining faoliyatini to'xtatish.	2024-yil II yarim yillikda	Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi,
25.	37 ta chiqindi poligonlar zamonaviy infratzilma, qulima va maxsus texnika bilan ta'minlash	2024-yil II yarim yillikda	Ekologik siyosat departamenti Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi,
26.	Maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish va biogazni qayta ishlash orqali ishlab chiqariladigan elektr va issiqlik energiyasiga " yashil tarif " joriy etishning huquqiy assosiarini yaratishni nazarda tutuvchi qaror loyihasini ishlab chiqib tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishib, Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2024-yil noyabr	Ekologik siyosat departamenti, Davlat xususiy sheriklik va maishiy chiqindilar boshqaruvini takomillashtirish bo'limi, Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazi
27.	Maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun to'lovlarni amalga oshirish bo'yicha yangi mexanizmni joriy qilish tartibini belgilashni nazarda tutuvchi Qaror loyihasini ishlab chiqib, tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishib, Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2024-yil oktabr	Ekologik siyosat departamenti, Davlat xususiy sheriklik va maishiy chiqindilar boshqaruvini takomillashtirish bo'limi, Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazi
28.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik	2024-yil noyabr	Davlat-xususiy sheriklik va maishiy chiqindilar boshqaruvini takomillashtirish

T/r	Ustuvor vazifalar	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ul
	vaziyatga ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 4-yanvardagi PF-5-son Farmoni ijrosini maqsadli o'rganish.		bo'limi, Qurilish, tibbiyot, xavfli, kimyoviy va boshqa turdagи chiqindilar boshqaruvinи takomillashtirish bo'lumi, Chiqindi poligonlari boshqaruvinи takomillashtirish bo'lumi, Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazi
29.	Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga ta'sirini kamaytirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisiga tegishli materiallarni tayyorlash.	2024-yil noyabr	Davlat-xususiy sheriklik va maishiy chiqindilar boshqaruvinи takomillashtirish bo'lumi, Qurilish, tibbiyot, xavfli, kimyoviy va boshqa turdagи chiqindilar boshqaruvinи takomillashtirish bo'lumi, Chiqindi poligonlari boshqaruvinи takomillashtirish bo'lumi, Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazi
30.	Orollbo'yи mintaqasidagi o'rmonzorlarni 1,9 million gektarga yetkazish.	2024-yil II yarim yillikda	O'rmon xo'jaligi agentligi
31.	9 000 tonna dorivor o'simliklar tayyorlash.	2024-yil II yarim yillikda	O'rmon xo'jaligi agentligi
32.	O'rmon xo'jaliklarida 102 million tup nihol va ko'chatlar yetishtirish hamda 367 tonnaga daraxt	2024-yil II yarim	O'rmon xo'jaligi agentligi

T/r	Ustuvor vazifalar	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ul
	va buta urug'larini jamg'arish.	yillikda	
33.	Respublikada o'rmon bilan qoplangan maydonlarni 3,65 million gektarga (8,1 foizga) yetkazish choralarini ko'rish.	2024-yil II yarim yillikda	O'rmon xo'jaligi agentligi
34.	O'rmon fondi yerlarida xususiy sektor sub'ektlarini jalg qilgan holda asalari oilalari sonini 230 ming taga yetkazish.	2024-yil II yarim yillikda	O'rmon xo'jaligi agentligi
35.	Yerlarni eroziyadan va melioratsiya ob'ektlarini qum ko'chishidan saqlash uchun ihota daraxtzorlarini 15 014 gektarga kengaytirish.	2024-yil II yarim yillik davomida	O'rmon xo'jaligi agentligi
36.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-dekabrdagi "Davlat o'rmon fondi yer maydonlaridan foydalanishda ijara munosabatlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 674-son qarori ijrosini maqsadli o'rghanish.	2024-yil dekabr	O'rmon xo'jaligi agentligi
37.	Xavfli gidrometeorologik hodisalar to'g'risida barvaqt ogohlantirish darajasini 97 foizga yetkazish.	2024-yil II yarim yillikda	Gidrometeorologiya xizmati agentligi
38.	Tog' daryolari oqimi prognozlarining ishonchiligi darajasini 98 foizga yetkazish.	2024-yil II yarim yillikda	Gidrometeorologiya xizmati agentligi
39.	Gidrometeorologik kuzatuv punktlarini jixozlash	2024-yil II yarim yillikda	Gidrometeorologiya xizmati agentligi

T/r	Ustuvor vazifalar	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ul
40.	Viloyatlar markazlari bo'yicha "noukasting" modeli asosida prognozlash tizimini joriy qilish.	2024-yil II yarim yillikda	Gidrometeorologiya xizmati agentligi
41.	Tarmoqda sinoptik mutaxassislarini qayta tayyorlash. Xodimlarni avtomatlashgan qurilmalardan foydalananish bo'yicha malaka ko'nikmalarini oshirish.	2024-yil II yarim yillikda	Gidrometeorologiya xizmati agentligi
42.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 27-iyuldaggi PQ-238-son qarori ijrosi bo'yicha Bosh vazir huzurida o'tkaziladigan majlisga tegishli materiallarni tayyorlash.	2024-yil sentabr	Turizm qo'mitasi
43.	YuNESKO ro'yxatiga kiruvchi tarixiy obe'ktlar bufer zonasida quriladigan 3-4 qavatlil mehmonxonalar uchun hamda birorta ham mehmonxona mavjud bo'lmagan 22 ta tumanda kichik otellar barpo etish uchun oilaviy xonalar sonidan kelib chiqib, subsidiya ajratishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2024-yil oktabr	Turizm qo'mitasi
44.	Ishchi guruh tashkil etgan holda Shahrisabz tumanida turizmni rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlarni har bir vazirlik, idora va mahalliy hokimlik kesimida ishlab chiqish hamda tegishli taqdimot materiallарini kiritish.	2024-yil sentabr	Turizm qo'mitasi

T/r	Ustuvor vazifalar	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ul
45.	<p>Bunda, Shahrisabz shahri va Shahrisabz tumanida turizm klasterini tashkil qilish hamda uzunligi 33 km bo'lgan Hisorak - G'elon, Hisorak - Sarchashma yo'lini ikki tasmali qilib va Chiroqchi – Sho'rquduq avtomobil yo'llining 30 km qismini ta'mirlash, 1 ta nimstansiyani barpo etish hamda 56 km elektr energiyasi tarmog'i va 17 km ichimlik suvi va oqova tarmoqni tortish nazarda tutish.</p> <p>Joriy yilda 10 mln nafar xorijiy sayyohni jalg etish va turizm eksportini 2,5 mldr dollarga yetkazish.</p> <p>Xususan, xorijdan:</p> <p>Toshkent shahar hokimligi 3,1 mln nafar, Samarqand viloyati hokimligi 2 mln nafar, Buxoro viloyati hokimligi 1,5 mln nafar,</p> <p>Xorazm viloyati hokimligi 750 ming nafar, Qashqadaryo viloyati hokimligi 550 ming nafar, Namangan viloyati hokimligi va Toshkent viloyati hokimligi 500 ming nafardan;</p> <p>Andijon viloyati hokimligi va Farg'ona viloyati hokimligi 450 ming nafardan, Jizzax viloyati hokimligi va Navoiy viloyati hokimligi 350 ming nafardan;</p> <p>Surxondaryo viloyati hokimligi 250 ming nafar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi 150 ming nafar hamda Sirdaryo viloyati hokimligi 100 ming nafar turistni jalb etish.</p>	2024-yil II yarim yillikda	<p>Turizm qo'mitasi, Hududiy bo'llinmalar faoliyatini muvofiqlashtirish va ekoturizmni rivojlantirish bo'limi</p>

T/r	Ustuvor vazifalar	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ul
46.	2 ta hududni tanlab olib, ushbu hududlarda ekstremal turizmni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish, Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2024-yil oktabr	Turizm qo'mitasi
47.	Xorijiy turistlar sonini 10,5 million nafarga yetkazish.	2024-yil II yarim yillikda	Turizm qo'mitasi
48.	Turizm xizmatlari eksportini 2,5 milliard dollarga yetkazish, shu jumladan, tibbiyot va ta'llim turizmi eksportini yiliiga 200 million dollarga yetkazish.	2024-yil II yarim yillikda	Turizm qo'mitasi
49.	Ichki sayyoohlар sonini 21 millionga , ziyorat turizmi bo'yicha keladigan turistlar sonini 1,5 million nafarga oshirish.	2024-yil II yarim yillikda	Turizm qo'mitasi
50.	"Mehmonxona – transport – turoperator – savdo va servis" korxonalarining kooperatsiya asosida faoliyat yuritadigan 4 ta yirik turizm klaster (majmuasi) ni tashkil etish.	2024-yil II yarim yillikda	Turizm qo'mitasi